



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

OILA INQIROZINING TARIXIY-FALSAFIY ILDIZLARI

Abduvaliyev Murodillo Ma'rufjon o'g'li
Farg'ona davlat universiteti, mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya

: Mazkur maqolada oila inqirozining tarixiy-falsafiy jihatlari jamiyatdagi ijtimoiy hayotga ta'siri tadqiq etilgan. Globallashuv natijasida "oila inqirozi" tezlashib ketayotgani, hozirgi G'arbdagi oila va oilaviy qadriyatlarga bo'lgan munosabatlarni natijasi insoniyatni muqarrar halokat kutayotganini bildiradi. Xususan Rim huquqida jamiyatdagi o'zgarishlarga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan oila inqirozi ijtimoiy-falsafiy jihatdan o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Oila, oila inqirozi, Rim huquqi, oilaviy munosabatlar, oilaviy qadriyat, jamiyat, nikoh, oila ma'naviyati.

ИСТОРИЧЕСКО-ФИЛОСОФСКИЕ КОРНИ СЕМЕЙНОГО КРИЗИСА

Абдувалиев Муродилло Ма'руфжон угли
Ферганский государственный университет, независимый исследователь

Аннотация

В данной статье рассматриваются историко-философские аспекты семейного кризиса и его влияние на общественную жизнь. Тот факт, что «семейный кризис» ускоряется в результате глобализации, а также современное отношение к семье и семейным ценностям на Западе, указывает на то, что человечество сталкивается с неизбежным разрушением. В частности, семейный кризис, который может вызвать изменения в обществе в римском праве, изучается с социально-философской точки зрения.

Ключевые слова: Семья, семейный кризис, римское право, семейные отношения, семейные ценности, общество, брак, семейная духовность.

HISTORICAL-PHILOSOPHICAL ROOTS OF THE FAMILY CRISIS

Abduvaliyev Murodillo Marufjon ogli
Fergana State University, Independent Researcher

Abstract

This article examines the historical and philosophical aspects of the family crisis and its impact on social life in society. The fact that the "family crisis" is accelerating as a result of globalization, and the current attitude towards family and family values in the West indicates that humanity is facing inevitable destruction. In particular, the family crisis, which could cause changes in society in Roman law, is studied from a socio-philosophical perspective.

Keywords: Family, family crisis, Roman law, family relations, family values, society, marriage, family spirituality.

Jamiyat a'zolarining jamoa bo'lib yashashi natijasida shakllangan oila va oilaviy munosabatlar kishilik jamiyatining ilk bosqichlariga borib taqaladi. Oila shaxsiy hayotning asosiy shakli, oilaviy va qarindoshlik munosabatlarining tabiiy maydoni bo'lib, busiz inson taqdirini tasavvur etib bo'lmaydi. Inson dastlabki hayot saboqlarini aynan oilada oladi. Bugungi kunda oila institutida sodir bo'layotgan jarayonlar ayrim mualliflar tomonidan halokatli hodisa sifatida baholansa, boshqalar tomonidan esa oilani qayta qurish davri sifatida talqin etilmoqda.

Bizningcha, oilani tarixiylik tamoyili asosida chuqur va maxsus falsafiy nuqtayi nazardan

ko‘rib chiqish hamda tadqiq etish holatlari kam uchraydi. Hozirgi vaqtda ham oila masalalari, asosan, demograflar, psixologlar va sotsiologlar tomonidan o‘rganilmoqda. Jumladan, ular oiladagi salbiy o‘zgarishlarning aholi soni dinamikasiga, xulq-atvorning buzg‘unchi tiplari shakllanishiga va umuman jamiyatning axloqiy holatiga ta‘sirini qayd etadilar. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ta‘kidlaganidek, “Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta‘minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o‘rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o‘rinlari yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi” [1; 244-b.].

Oila ko‘plab funksiyalarni bajaradi. Jumladan, u oila a‘zolarining hissiy va psixologik xavfsizligini ta‘minlaydi, iqtisodiy, moddiy va ma‘naviy tayanch bo‘lib xizmat qiladi, sheriklar o‘rtasidagi ishonch asosida oilaviy munosabatlarni shakllantiradi. Bundan tashqari, oila a‘zolarining irqi, jinsi va dinidan qat‘i nazar, jamiyat tartibi va barqarorligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. Tarixiy taraqqiyotning turli sivilizatsiyalarida oilalar matriarxal yoki patriarxal shakllarda boshqarilgan bo‘lib, asosan katta oilalardan iborat bo‘lgan. Oila-nikoh munosabatlarining huquqiy-yuridik yo‘nalishi, axloqiy-estetik jihatlari, oila va din munosabati, aholining salomatligini himoya qilish muammosi, oilalar soni, tarkibi va tuzilishi, oilaning moddiy-iqtisodiy ta‘minoti, turmush darajasi, oilada er-xotinning o‘rni va roli, oiladagi ruhiy muhit, oilaviy mojarolar va ajralishlar hamda ularni keltirib chiqaruvchi sabablar muhim tadqiqot obyekti bo‘lib kelmoqda.

Jahon qomusiy lug‘atida oilaga quyidagicha ta‘rif berilgan: “Oila — er-xotinlik, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo‘jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar hamda boshqa qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh; jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai. Oilaning hayoti moddiy (biologik, xo‘jalik) va ma‘naviy (axloqiy, huquqiy, psixologik) jarayonlar bilan xarakterlanadi. Oila — tarixiy kategoriya. Uning shakllari va funksiyalari mavjud ijtimoiy munosabatlar xarakteriga, shuningdek, jamiyatning madaniy taraqqiyoti darajasiga bog‘liq” [2; 15-b.]. Oila insoniyat madaniyatining eng qadimgi davrlaridan to hozirgi kungacha bo‘lgan eng muhim institutlaridan biridir. Zamonaviy G‘arb madaniyatining yirik vakillaridan biri, yozuvchi va faylasuf J. Faulz sevgi va nikohni tenglashtirib, nikoh ontologik va bioijtimoiy asoslarga ega bo‘lgan eng olijanob munosabat turi ekanligini ta‘kidlaydi. Chunki, uning fikricha, “erkak va ayol eng kuchli biologik tamoyillardir. Ularning jamiyatdagi ziddiyatsiz o‘zaro ta‘siri ijtimoiy salomatlik belgilaridan biridir” [3; 251-b.]. Zamonaviy ijtimoiy nosog‘lomlik ko‘p jihatdan oilaviy qadriyatlar masalasining chuqur muammoliligi va uning ijobiy hal etilmaganligi bilan bog‘liq. Ye.B. Rashkovskiy haqli ravishda ta‘kidlaganidek, insoniyatning butun ongli tarixi davomida oila “har doim nafaqat o‘zgarimas hayotiy voqelik, balki muammo sifatida ham qabul qilingan” [4; 27-b.]. Shunga ko‘ra, bugungi davr oila va oilaviy qadriyatlar muammosini nihoyatda keskinlashtirmoqda.

XXI asr boshidayoq oila va yoshlar masalasi bo‘yicha taniqli mutaxassis V.T. Lisovskiy shunday deb yozgan edi: “Avvalgi qadriyatlar yo‘qotilgan, ba‘zi barqarorlari esa hali topilmagan hozirgi paytda nikoh va oila muammolari ayniqsa dolzarb bo‘lib qolmoqda” [5; 62-b.]. Oila inqirozining tarixiy-falsafiy ildizlarini tushunish uchun, avvalo, oila institutining o‘zi qanday shakllangani va vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarganiga nazar tashlash lozim. Qadimgi Gretsiya va Rimda oila jamiyatning asosi hisoblangan, biroq ayollar va bolalarning huquqlari cheklangan. Oilaviy munosabatlar ko‘pincha iqtisodiy va siyosiy manfaatlariga asoslangan. Falsafada oilaning roli va ahamiyati haqida turli qarashlar mavjud bo‘lgan. Masalan, Aristotel oilani davlatning asosiy birligi deb hisoblagan bo‘lsa, Platon “Ideal davlat” konsepsiyasida oilaviy aloqalarni cheklashni taklif qilgan. Sharq falsafasida esa konfutsiychilik oilaviy munosabatlarga, ayniqsa, ota-onaga hurmat va itoatkorlikka katta ahamiyat bergan. Hinduizmida esa oila karma va reinkarnatsiya qonunlari bilan bog‘liq holda talqin etilgan. Xususan, “Qadimgi yunon falsafasida

oilaning ijtimoiy mohiyati, uning insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni haqidagi qarashlarni tahlil etgan klassik faylasuflarning patriarxal oila ijtimoiy munosabatlar va jamiyat hayotining asosi bo‘lishi, davlat esa patriarxal oilalar birlashuvidan paydo bo‘lganligiga oid yondashuvlari” [6; 324-b.] uchraydi.

Oila shakllanishining tarixiy bosqichlarida ko‘p nikohdan yakka nikohga o‘tilishi jamiyat hayotida ijobiy rol o‘ynagan, axloq normalari va insoniy munosabatlarning qaror topishiga asos bo‘lgan, turli yuqumli kasalliklar va ijtimoiy illatlarning oldi olingan. Oila shakllanishining tarixiy jihatlarida har bir xalqqa xos xususiyatlarni ham kuzatish mumkin. Masalan, “Qadimgi Rimda monogam oila tartiblari o‘rnatilgan bo‘lib, erkak o‘z ayolining xo‘jayini hisoblangan. Erkaklar oilada barcha huquqlarga ega bo‘lgan, ayolning esa huquqlari cheklangan edi; hatto ayol xiyonati uchun qatl qilish tartibi ham joriy etilgan. Barcha xalqlarda diniy e‘tiqodning vujudga kelishi oila shakllanishi bilan birga kechgan. Ammo dunyoviy din hisoblangan buddizm, xristianlik va islomning vujudga kelishi oila munosabatlari ravnaqida ijobiy rol o‘ynaganligini kuzatish mumkin. Barcha diniy e‘tiqodlarda diniy qarashlarning ilk shakllanish bosqichida — eramizdan avvalgi I ming yillik oxirlarida o‘zga dindagilar bilan nikohga kirishish dastlabki davrda ma‘qullangan” [7; 56-b.]. Shuningdek, Platon idealizmning asoschisi sifatida patriarxal oila haqidagi elementar nazariyaning yaratuvchisi hisoblanadi. U o‘zining “Davlat” asarida: “Har bir nikoh davlat uchun foydali bo‘lishi kerak... Farzandlarni tarbiyalash monogam oilaning emas, balki davlat mohiyati va mazmuniga mos bo‘lgan ‘jamoalari’ning vazifasi bo‘lishi lozim” [5; 294-b.], deya ta‘kidlaydi. Yuqorida to‘xtalganimizdek, uning bola tarbiyasiga umumdavlat miqyosida qarash lozimligi haqidagi fikrlari dolzarb hisoblanadi. Biroq Platon qarashlarida yakka nikohning muqaddasligi haqidagi g‘oyalar ilgari surilmagan. Keyinchalik buyuk mutafakkir Aristotel ilk bor oila va nikoh masalalarida empirik nazariyaga asoslangan qarashlarini ilgari surganini kuzatish mumkin. Aristotel Platonning ayrim fikrlarini tanqid qilib, oilani “kichik davlat” deb atagan. Izlanishlar natijasida aniqlanishicha, “Platon va Aristotel o‘sha davrdagi oilaning tarixiy shakllarini tahlil qilib, oila shaklining o‘zgarishi, avvalo, shu jamiyatdagi taraqqiyot va tanazzul bilan bog‘liqligini asoslab berganlar. Ular oilalarning uch xil shakldagi evolyutsiyasi g‘oyasini ilgari suradilar: birinchisi — yovvoyilik, ikkinchisi — varvarlik, uchinchisi esa — sivilizatsiya davri” [7; 67-b.].

Qadimgi Rim huquqini o‘rgangan tadqiqotchilar fikricha, “Oila kichik davlat deb qaralgan. U jamiyatning asosi va uni harakatlantiruvchi subyekt sifatida talqin etilgan. Yakka nikohlilik, o‘zaro sofdillik, ota hukmronligi institutining mutlaq xarakterga ega ekanligi e‘tirof etilib, oilaviy huquqiy munosabatlarni tartibga solish eng yuqori cho‘qqiga olib chiqilgan” [8; 39-b.]. Bu esa oila inqiroziga qarshi eng samarali faoliyat shakllaridan biri sifatida baholangan. Shuningdek, oila inqirozga uchramasligi uchun “Qadimgi Rim jamiyatida oila davlat yacheykasidan iborat bo‘lgan uy xo‘jaligini boshqaruvchi, ota-ona, aka-uka, opa-singillar, qullar, vasiylik yoki homiylikdagi shaxslarning jamoasi hisoblangan. Yangi eramizning II asri mashhur yuristi Gay Rim oila tizimini shunday tipik xususiyatga ega deb hisoblaganki, u hech qanday xalqlar tomonidan barpo qilingan oilalarga o‘xshamaydigan ‘Rim xalqining erishgan buyuk yutug‘i‘dir”, deya ta‘riflagan. Oila-nikoh munosabatlarining tarixiy shakllanishi turmush tarzi bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Zero, oila bilan bog‘liq barcha masalalar kishilar turmush tarzi tarkibiga kiradi. Biroq oila jamiyatning kichik bo‘lagi sifatida maxsus tadqiqotlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Chunki globallashtirish natijasida “oila inqirozi” degan tushuncha azaliy qadriyatlarga xavf solmoqda. Shu sababli nikohning tarixiy shakllanishini ijtimoiy nazariya sifatida o‘rganish hozirgi davr jamiyatining ijtimoiy hayotini ilmiy tahlil etishda muhim ahamiyatga ega. Oila-nikoh munosabatlarining tarixiy shakllanishi bir necha asrlik tajribalar asosida rivojlanib kelgan.

Oila inqirozining tarixiy-falsafiy ildizlari insonning biologik mavjudot ekanligi va boshqa biologik mavjudotlar qatori ma‘lum instinktiv xususiyatlarga ega ekanligi bilan bog‘liq holda shakllana boshlagan. Jumladan, bunda jinsiy ehtiyojlar va munosabatlar muhim o‘rin tutadi.

Ular asosida har bir jonli mavjudotga xos bo'lgan avlod qoldirish instinkti yotadi. Oilaviy munosabatlarning dastlabki paydo bo'lishi ham aynan shu ehtiyojlarni qondirish asosida yuzaga kelgan. Bizningcha, oila inqirozi ham ana shu istaklarning me'yoridan oshishi bilan bog'liqdir.

Oila inqirozi mulk munosabatlarining paydo bo'lishi bilan tarix sahnasiga chiqdi. Albatta, bu uzoq davr mobaynida shakllanib borgan jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar hamda urf-odatlarining tarkib topishiga ham sabab bo'ldi. Oilaviy munosabatlar shakllanib borishi natijasida undagi iqtisodiy, huquqiy va ma'naviy munosabatlar ham tarkib topib, rivojlanib borgan. Rim davlatida oila oila boshlig'i — *paterfamilias*ning dastlab cheklanmagan, keyinchalik esa nisbatan tartibga solingan, biroq keng vakolatli hukmronligiga asoslangan. U o'z bolalari, nevaralari, chevaralari, xotini hamda uy xo'jaligidagi barcha shaxslar ustidan hukmronlik qilgan. Bularning barchasini "o'zimga" (*sui*) deb ta'riflab, oila boshlig'i o'zini "o'zimga o'zim xo'jayinman" (*sui iuris*), "barcha huquqlarga egaman" deb e'tirof etgan.

Millatning vujudga kelishi, rivojlanishi va ko'payishini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Oila inqirozi xalqlar ko'payishining birdan-bir asosi hisoblangan nikoh va oila munosabatlariga xavf solmoqda. Juda qadimgi davrlarda hozirgi tushunchadagi nikoh va oila munosabatlari mavjud bo'lmagan, bo'lgan taqdirda ham dastlab guruhnikoh, ya'ni bir guruh ayollar bilan bir guruh erkaklar o'rtasidagi umumiy er-xotinlik, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi jinsiy aloqalar kuzatilgan. Bu esa oilaviy munosabatlarning ma'naviy va ijtimoiy ahamiyatini susaytirgan. Oila inqiroziga qarshi kurashilmas ekan, "oila" degan muqaddas makonning ma'naviy yemirilishiga sababchi bo'lib qolishimiz mumkin. Oila inqirozining tarixiy-falsafiy ildizlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, oila instituti insoniyat taraqqiyoti davomida doimiy ravishda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy omillar ta'sirida shakllanib va o'zgarib kelgan murakkab ijtimoiy tizimdir. Turli tarixiy bosqichlarda oilaning mazmuni, funksiyalari va qadriyatlarini jamiyatdagi ustuvor ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Shu bois bugungi kunda kuzatilayotgan oila inqirozi ham tasodifiy hodisa emas, balki uzoq tarixiy jarayonlarning mantiqiy natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oila inqirozining asosiy ildizlari industrializatsiya, urbanizatsiya, global madaniy ta'sirlar, individualizmning kuchayishi va an'anaviy qadriyatlar tizimining zaiflashuvi bilan chambarchas bog'liqdir. Falsafiy nuqtayi nazardan esa bu jarayon insonning erkinlik va mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni yo'qotishi, ijtimoiy identiklik va axloqiy mezonlarning transformatsiyasi bilan izohlanadi. Natijada oilaning ijtimoiylashtirish, tarbiyaviy, iqtisodiy va kommunikativ funksiyalarida muayyan inqiroziy holatlar yuzaga kelmoqda. Shuningdek, oila inqirozini faqat salbiy jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy tizimning yangilanishi va moslashuvchanlik xususiyatini aks ettiruvchi holat sifatida ham baholash mumkin. Chunki tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, oila instituti turli bosqichlarda yangi shakl va mazmun kasb etgan holda o'zining ijtimoiy ahamiyatini saqlab qolgan. Shu ma'noda, zamonaviy oila inqirozi yangi qadriyatlar, yangi ijtimoiy munosabatlar va oilaviy modellarning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Xulosa qilib aytganda, oila inqirozining tarixiy-falsafiy ildizlarini chuqur o'rganish jamiyatda sog'lom oilaviy muhitni shakllantirish, an'anaviy va zamonaviy qadriyatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash hamda ijtimoiy siyosatni samarali yo'naltirishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. — Toshkent: O'zbekiston nashriyoti, 2022.
2. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 2-kitob / tahrir hay'ati: O. U. Salimov, H. O. Shayxova va boshqalar. — Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2023.
3. Faulz D. Aristos. — Moskva, 2008.
4. Rashkovskiy E. B. Oila fenomeni (fanlararo izohlar) // Voprosy filosofii. — 2010. — № 10.
5. Lisovskiy V. T. Yoshlar: sevgi, nikoh, oila (sotsiologik tadqiqot). — Sankt-Peterburg, 2003.
6. Platon. Davlat // Asarlar. — Moskva, 1971.
7. Topildiyev V. R. Rim huquqi. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2013.